

# «Internet-banking» tizimidan foydalangan holda bank hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha QO‘SHILISH SHARTNOMASI

«Orient Finans» XATB, bundan keyin Bank deb ataladi, va Korxona, bundan keyin Mijoz deb ataladi, «Internet-banking» tizimida bank hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha shartnomasini (keyingi o‘rinlarda - Shartnoma) unga qo‘shilish yo‘li bilan qabul qilishni, shartnomaga qo‘shilish uchun Ariza (keyingi o‘rinlarda - Ariza), taqdim etib, quyidagicha kelishib oldilar:

## 1. XIZMAT MAZMUNI

1.1. Bank Mijozning imzo va muhr izi tushirilgan kartochkasida ko‘rsatilgan shaxslar elektron raqamlari imzo yordamida to‘lovlarni amalga oshirish va hisobvaraqdan ko‘chirma olish uchun bankka hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish imkoniyatini beruvchi «Internet-banking» tizimi (keyingi o‘rinlarda - Tizim) yordamida Mijozning hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatadi.

1.2. Bank Mijozga tizimda quyidagi turdagи xizmatlar (keyingi o‘rinlarda – Xizmat turlari)ni taqdim etadi

1.2.1. Axborot xizmati:

- Hisob raqamlarda ayni paytdagi qoldiq mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumot;
- Hisob raqamlari bo‘yicha ko‘chirma va hisobotlar olish;

1.2.2. Mijozning to‘lov topshiriqnomalarini ijro qilish.

## 2. TERMINALAR, TUSHUNCHА VA QISQARTMALAR

### 2.1. «Internet-banking» tizimi (Tizim) –

mijoz va bank hududida o‘rnatalgan hamda mijoz va bank tomonidan tegishli qismlarga muvofiq kelishilgan holda boshqariladigan dasturiy-apparat vositalari majmui, shuningdek mijoz va bank tomonidan mijozga xizmat ko‘rsatish maqsadida amalga oshiriladigan tashkiliy chora-tadbirlar. Tizim me’yoriy-huquqiy bazadagi o‘zgarishlar munosabati bilan hamda mijozlar ehtiyojlariga eng to‘liq mos kelishini ta‘minlash uchun bank tomonidan yangilanishi va o‘zgartirilishi mumkin. Tizim avtomatik ravishda, Mijozning ishtirokisiz, lekin tegishli tarzda xabardor qilingan holda yangilanadi. Har qanday vaqtda mijoz tizimning so‘nggi versiyasida ishlaydi.

2.2. **ETH** – elektron to‘lov hujjat.

2.3. **ETH maqomi** – Tizimda ETHga ishlov berish ayni paytda qaysi bosqichda ekanligini belgilash.

2.4. **Mijoz foydalanuvchisi** – Mijoz nomidan tizim ichida ishlash huquqiga ega bo‘lgan va tizimda ro‘yxatdan o‘tgan mijozning xodimi. Mijozning foydalanuvchilari bankka yo‘llanadigan so‘rovnama, to‘lov hujjatlarini shakllantiradilar va bankdan ma’lumot oladigan va qayta ishlaydilan hamda mijoz nomidan ETHni elektron usulda imzolaydilar.

2.5. **Elektron raqamli imzo (ERI)** – Mijozning faqat vakolatli xodimi (foydalanuvchi)da saqlanuvchi, o‘tkazilgan maxfiy kalit asosida shakllantiriladigan noyob muayyan ETHga muvofiqlashtiriladigan va ETHni autentifikatsiyasi (mualliflikni tasdiqlash) va uni yaxlitligini tasdiqlash uchun ishlatiladigan baytlar majmui. ETHni shakllantirishda foydalaniladigan rekvizitlar ro‘yxati mazkur shartnomaning 3.2. bandida keltirib o‘tilgan.

2.6. **Mijozning to‘g‘ri ERIsi** – Mijozning ochiq kalitli ERI bilan tekshirilganda ijobiy natija beruvchi Mijozning ETHsidagi ERIsi.

2.7. **Mijoz ERIsining mahfiy kaliti** – ERI huquqiga ega bo‘lgan Mijozning foydalanuvchilari Mijozning ETHni shakllantirish uchun ishlatishga mo‘ljallangan kalit (baytlar ketma-ketligi)

**2.8. Mijozning ochiq kalitli ERIsi** – Mijoz foydalanuvchisining maxfiy kaliti bilan bog'liq kalit (baytlar ketma-ketligi). Ochik kalitli ERI Mijoz foydalanuvchisining ERIning maxfiy kalitiga mos keladig va Mijoz tomonidan elektron tarzda imzolangan hujjat ERIsini tekshirish uchun albatta Bank tasarrufida bo'ladi.

**2.9. Mijozning faol(aktiv) ochiq kalitli ERIsi** – Bankda tomonidan Tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan, Mijoz foydalanuvchisi tomonidan ayni paytda tizimda ishslash uchun foydalaniladigan Mijoz foydalanuvchisining ochiq kalitli ERIsi. Istalgan vaqtida Tizimda mazkur Mijoz foydalanuvchisining bir ortiq bo'limgan aktiv ochik kalitli ERIsi bo'lishi mumkin.

**2.10. Foydalanuvchining tizimdagi nomi/ismi** – Muayyan Mijoz foydalanuvchi nomini ifodalaydigan, Tizimda mazkur foydalanuvchini mos kelishi va uning Tizimdagi huquqlarini aniqlashga imkon beruvchi ochiq ketma-ketlikdagi belgilar.

**2.11. Foydalanuvchining paroli** – Foydalanuvchining huquqlariga muvofiq Mijozning resurslariga kirish uchun Tizimga kirishda taqdim etilagan Foydalanuvchining tizimdagi nomi va PIN bilan USBga foydalanuvchining shaxsi mos kelishini tasdiqlash imkonini beradigan Mijoz foydalanuvchisi bilan bog'liq va faqat unga ma'lum bo'lgan mahfiy ketma-ketlikdagi belgilan.

**2.12. Shifrlar** – Ma'lumotlarni (elektron hujjatlarni) Mijoz va Bank o'rtasida aloqa liniyalari orqali uzatishda ruxsatsiz o'qishdan himoya qilishni ta'minlash.

**2.13. Tizimda ishslash qoidalari** – Tizimning joriy versiyasi bilan to'g'ri ishslashni tasvirlaydigan qog'oz yoki elektron shakldagi ko'rsatmalar, proseduralar, tizim foydalanuvchilarining funksional majburiyatlarini tavsiflovchi jamlanma. Qoidalalar tizim versiyalaridagi o'zgarishlar tufayli o'zgarishi mumkin.

**2.14. Mijozning resursi** – Mijoz haqida, mijozning hisobvaraqlari, balanslari, aylanmalari, to'lov hujjatlari, elektron pochta, foydalanuvchilari, mijozning huquq va profili to'g'risidagi bankda saqlanayotgan ma'lumotlar.

### **3. UMUMIY QOIDALAR**

**3.1.** Tizimning Mijoz foydalanuvdagagi qismi standart dasturiy ta'minotdan iborat bo'lib, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) Quyidagi konfiguratsiyadagi shaxsiy kompyuter: Intel Pentium 4, HDD 40 Gb, RAM – 1024 Mb, Flash (USB) port - protsessor (dan kam bo'limgan)
- 2) O'n olti bitli rangda minimal 800x600 nuqtali o'chamni quvvatlovchi SVGA adapterli rangli display
- 3) Bank bilan aloqa uchun telefon tarmog'i yoki mobil aloqasi
- 4) Kompyuterda ishlaydigan operatsion tizim: *Windows 7* yoki undan yuqori
- 5) O'rnatilgan virusga qarshi (antivirus) vositasi (ohirgi yangilanishlar bilan)
- 6) Microsoft Internet Explorer 9.0 va undan yoqori Internet-brauzer
- 7) Kompyuterga ulangan printer
- 8) Internetga faol ularish

- 3.2.** Elektron to'lov hujjati uchun zarur rekvizitlar ro'yxati:
- a) To'lov hujjati turi: *To'lov topshiriqnomasi*
  - б) ERHni shakllantirishda ishtirok etuvchi rekvizitlar:
  - в) *Hujjat raqami* – 10 ta belgigacha (boshlang'ich va yakunlovchi bo'shliqlarsiz)
  - г) *To'lov sanasi* – 8 ta belgi, Yil/oy/kun (YYYYMMDD) formatida
  - д) *Mijoz hisob raqami* – 20 ta belgi
  - е) *Mijoz hisob raqam MFOsi* – 5 ta belgi
  - ж) *Vakillik hisob raqami* – 20 ta belgi
  - з) *Vakillik hisob raqami MFOsi* – 5 ta belgi
  - и) *Vakil (korrespondent) nomi* – 60 ta gacha belgi (boshlang'ich va yakunlovchi bo'shliqlarsiz)
  - к) *To'lov summasi* – 19.2 formatda 19 ta belgi (znak) ((boshlang'ich va yakunlovchi

bo'shliqlarsiz, 1 so'mdan kam bo'lgan summaning butun qismiga 0 kiritish lozim)  
л) *To'lov maqsadi* – 140 ta belgigacha (boslang'ich va yakunlovchi bo'shliqlarsiz)

### 3.3. Tomonlar tan oladilar:

- O'zbekiston Respublikasining Davlat standartlariga (O'z DSt standarti) muvofiq ishlovchi elektron raqamli imzo va elektron hujjatlarni uzatish uchun Tizimda foydalilaniladigan usuli;
- Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat o'zboshimchalik bilan o'zgartirilsa, ERI noto'g'ri bo'ladi, ya'ni ERI tekshiruvi salbiy natija beradi;
- Mijozning ERIsini qalbakilashtirish, mijoz nomidan elektron hujjatning to'g'ri elektron raqamli imzosini Mijozning yopiq kalitli ERIsini bilmay turib yaratishning iloji yo'q;
- Mijozning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjatlar mijozning rahbari tomonidan imzolangan va mijozning muhr izi aks etgan qog'oz shakldagi tegishli hujjatlariga teng hisoblanadi. Mijozning ERIsi bilan imzolanmagan Elektron hujjatlar bank tomonidan ko'rib chiqilmaydi va ijro etilmaydi. Bunda elektron hujjatlar ustunlikka ega bo'lib, qog'oz shakli bilan farqlansa, qog'oz shakli Mijoz tomonidan tuzatilishi lozim;
- Nizoli holatlar yuzaga kelganda ularni Texnik ekspertizadan o'tkazish tartibiga muvofiq hal etish uchun Mijoz tomonidan elektron raqamli imzodan foydalangan holda Bank tizimida shakllantirilgan elektron hujjatlar daliliy ashyo sifatida foydalaniadi. Nizomli holatlar yuzaga kelganda elektron raqamli imzoga ega bo'lmagan elektron hujjatlar daliliy ashyo sifatida foydalanimaydi;
- Mijozning rahbari imzosi va muhri bilan tasdiqlangan Ochik kalitli ERI guvohnomasida ko'rsatilgan Mijozning ochiq kalitli ERIsi mijozga tegishlidir.
- Tizimda ishlashning yagona vaqt o'Ichov shkalasi sifatida Toshkent vaqt mintaqasi qo'llaniladi. Nazorat vaqt bo'lib O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking apparat vositalari tizim soati hisoblanadi.

## 4. TO'LOV SHARTLARI

4.1. «Internet-banking» tizimida hisobvaraqa xizmat ko'rsatganlik uchun Mijoz Bank Tariflariga muvofiq haq to'laydi.

4.2. To'lov mijoz tomonidan hisobot oyidan keyingi har oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## 5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 5.1. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

- 5.1.1. Mijozning ochiladigan kalitli ERIsini yaratish;
- 5.1.2. Kalitlar (Ochiq kalitli ERI va mahfiy kalitli ERI)ni Mijozga, ya'ni bevosite vakolatli shaxs (birinchi imzo huquqiga ega rahbar)ga ePass yoki iKey (USB kalit) tashuvchilar (nositel)ida topshirish-qabul qilish dalolatnosi (Shartnomaning 1-sonli ilovasi)ni imzolagan holda taqdim etish;

### 5.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. Agar mijoz mahfiy va tegishli ochiq kalitli ERI amal qilishini bekor qilinishi haqida yozma xabarnoma taqdim etsa, Mijozning tizimdagи faol ochiq kalitli ERIsini o'chirish;

5.2.2. Agar mijozning ERI kalitlari buzilgan/qalbakilashtirilgan deb gumon qilinsa yoki imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati o'zgartirilsa, Mijozni ogohlantirmsandan, Mijozning faol ochiq kalitli ERIsini bloklash va Mijozdan ERI kalitlar juftligini o'zgartirishni talab qilish;

5.2.3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari talablariga rioya qilish hamda xavfni kamaytirish

maqsadida:

- mijoz amalga oshirgan operatsiyalarning qonuniyligini yozma ravishda bayon etguniga qadar tizim orqali mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatishga va agar Mijoz tizim yordamida shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlansa, Tizim orqali xizmat ko'rsatishni rad etishga haqli;
- mijozni joylashgan joyi bo'yicha (pochta manzili) tekshirishga, shu jumladan tizim yordamida shubhali operatsiyalar o'tkazilganligi haqida gumon mavjud bo'lsa, operatsiyalarni amalga oshirish jarayonini o'rganishga haqli;
- Tizim orqali shubhali operatsiyalar amalga oshirilgan taqdirda, tizim orqali mijozga xizmat ko'rsatishni 3 bank ish kunigacha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yish;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирғиn qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida bunday xizmatlardan foydalanish bo'yicha asosli gumonlar mavjud bo'lsa, tizim bo'yicha xizmat ko'rsatishni to'xtatish.

5.2.4. To'lovni o'tkazish vaqtı yakunlangunga qadar to'lov kunida Mijozning hisobvarag'ida to'lovni amalga oshirish uchun mablag' etarli yoki mavjud bo'lmasa, Mijoz tomonidan tizim orqali bankka yuborilgan elektron to'lov topshiriqnomalarini qabul qilmaydi va rad etadi.

### **5.3. Mijoz quyidagi majburiyatlarga ega:**

5.3.1. Kalitlar (ochiq kalitli ERI va mahfiy kalitli ERI)ni shaxsan (shaxsan tashkilot rahbari) bankdag'i olish;

5.3.2. Tizimning ishlashi uchun normal shart-sharoit yaratish, xususan, shartnomaning 3.1. bandida ko'rsatilgan minimal dasturiy-texnik talablarni saqlash;

5.3.3. Tizimda foydalaniladigan parol va mahfiy kalitli USB kalitni sir saqlash va uchinchi shaxslarga bermasliq;

5.3.4. Tizimga ruxsatsiz kirishga urinish yoki ERI kalitlarni yo'qotilganlik/shikat etkazganlik holatlari haqida darhol bir ish kuni ichida Bankni yozma ravishda xabar berish;

5.3.5. Bankning amaldagi tariflariga muvofiq o'z vaqtida bank xizmatlari uchun haq to'lash.

### **5.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**

5.4.1. Faol ochiq kalitli ERIni muddatidan oldin bekor qilish va Bankni yozma ravishda Mijozning mahfiy va unga muvofiq ochiq kalitli ERIsini bekor qilish to'g'risida xabardor qilgan holda faol ochiq kalitli ERIni bloklash;

5.4.2. Mijoz rahbarining imzosi bilan tasdiqlangan arizasiga muvofiq Mijoz ERI kalitlar juftligini yangidan tayyorlashga so'rov jo'natish yoki kalitlarni qayta generatsiya qilishga elektron so'rov yo'llash;

5.4.3. Tizimda o'z ishini vaqtincha o'chirib qo'yish(bloklash)ni yozma so'rov asosida amalga oshirish.

5.5. Bank mijozning tizim orqali yo'llagan hujjatlarini soat 9.00 dan 17.30 gacha qabul qiladi.

5.6. Mijoz tomonidan joriy ish kuni bo'yicha yuborilgan hujjatlar 15:00 gacha bankka taqdim etilishi va to'lov hujjatining "hujjat sanasi" maydonida joriy ish kuni sanasi ko'rsatilishi kerak. Agar hujjatlar Bank tomonidan 15:00 dan keyin qabul qilingan bo'lsa, Bank qabul qilingan hujjatlar bo'yicha operatsiyalarni bajarishni rad etish huquqiga ega.

## **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Bank Mijozning maxfiy kalitli ERIsidan uchinchi shaxslar yoki kirish huquqiga ega bo'limgan shaxslar tomonidan foydalanilishi (mijozlar ERI kalitini yo'qotishi, parollarni uzatish va boshqalar), shuningdek Mijozning 5.3.4-band bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida Mijozga etkazilgan zarar uchun javobgar

bo'lmaydi.

6.2. Agar Mijoz maxfiy kalitni o'z ichiga olgan «IKEY»/«ePass» elektron tashuvchi(nositel)ni yo'qotsya va/yoki zarar etkazsa, Mijoz tomonidan Mijoz va Bank o'rtaida imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasida nazarda tutilgan miqdorda haq to'lanadi.

6.3. Tizimdan foydalanganish davomida Mijoz va Bank o'rtaidagi nizolar kelib chiqqan taqdirda, Tomonlar nizoli holatlari yuzaga kelganda texnik ekspertizani o'tkazish tartibi (Shartnomaning 8 bo'limi)ga muvofiq nizolarni ko'rib chiqishda ishtirok etish majburiyatini oladilar, ushbu bo'limda ko'rsatilgan qoida talablariga rioya qiladilar va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar.

## **7. MIJOZNING HISOBVARAG'INI YURITISH TARTIBI**

7.1. Mijozning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma keyingi kuni shakllantiriladi. Mijoz bankka tizim orqali taqdim etgan to'lov hujjatlarini bajarishni davom ettirishga ko'rsatma beradi.

7.2. To'lov topshiriqnomasini olishda Bank mijozning ERIsi to'g'riliгини tekshiradi, hujjat rekvizitlari to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi va mijozning joriy hisobvarag'ida debet qoldig'i bor-yo'qligini tekshiradi. Agar to'lov hujjatlarini tayyorlash bo'yicha me'yoriy hujjatlar talablariga nomuvofiqliklar, noaniqliklar yoki ziddiyatlar topilsa, Bank ularni qabul qilmaslik huquqiga ega.

## **8. NIZOLI HOLATLAR YUZAGA KELGANDA TEXNIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TARTIBI**

8.1. Nizoli holat – bu «Internet-banking» tizimining tegishli texnik vositalari yordamida to'g'riligi Mijozning vakolatli vakili (foydalanuvchisi) tomonidan mualliflashtirilmagan ETHni Bank tomonidan Mijozning nomidan ekspertizadan o'tkazish, shuningdek Bank tomonidan ETHni sabab ko'rsatmagan holda o'tkazmasligigi bilan bog'liq Mijozning Bankka bo'lgan noroziligi. Norozilik talablari aniq o'rnatilishi yoki ETHni Mijozning ERIsini tekshirish natijasiga ko'ra rad etilishi mumkin.

8.2. Bunday holatda Mijoz «Internet-banking» tizimidagi Bank uchun hisobvaraq bo'yicha operatsiyani amalga oshirish uchun asos bo'lgan yoki mavjud bo'lmaganda hisobvaraqdan haqiqatda pul echilishi sodir bo'lgan ETHni ko'rsatgan holda asosiy norozilik talablari aks etgan ariza bilan Bankka murojaat qiladi. Bank mijozning hisobvarag'idan pul mablag'lari echilgan paytdan ikki ish kuni ichida mijozning norozilik arizasini qabul qiladi. Mijozning norozilik arizasi ko'rib chiqilish davrida Mijozning «Internet-banking» tizimidagi ishi Bank tomonidan blokланади.

8.3. Bank Mijozning arizasi taqdim etilgan kundan e'tiboran besh kundan ortiq bo'Imagan muddatda arizani ko'rib chiqish uchun nizoni ko'rib chiqish komissiyasini tuzishi shart. Komissiya tarkibiga Mijoz vakillari (mijoz tanloviga ko'ra), Bank vakillari (bank tanloviga ko'ra) va zarur hollarda mustaqil ekspertlar kiritiladi. Komissiya a'zolarini tanlash barcha ishtirokchilar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

8.4. Hujjat bo'yicha nizolarni hal qilish uchun Mijoz bankka tegishli texnik mutaxassis, shuningdek hujjatlarning yuridik ahamiyatini tasdiqlovchi mijozning vakolatli foydalanuvchisi (avtorizator) bilan birga kelishi kerak. Mijozning foydalanuvchisi o'zi bilan ERI vositasini olib kelishi kerak.

8.5. Nizoni ko'rib chiqish komissiyasi tomonidan nizoni ko'rib chiqishning natijasi, ko'rib chiqilayotgan hujjatda Mijozning elektron raqamlı imzosining haqiqiyligi bo'yicha xulosasiga ko'ra javobgar tomonni aniqlashdan iborat.

8.6. Nizoni ko'rib chiqish komissiyasi arizani ko'pi bilan besh kun muddat ichida ko'rib chiqadi. Arizani ko'rib chiqish quyidagi bosqichlardan iborat:

8.6.1. Nizoni ko'rib chiqish komissiyasi Mijozning norozilik arizasini texnik

ekspertizadan o'tkazadi.

#### 8.6.2. Ruxsat etilmagan tarzda pul mablag'ini echish hollarda:

- Tizimda nizoli hujjatga mos keladigan tranzasiya (o'tkazma) mavjudligini tekshiradi. Agar ko'rsatilgan tranzaksiya (pul mablag'ini echish holati mavjud bo'lmasa) mavjud bo'lmasa, Mijozning norozilik arizasi avtomatik tarzda echiladi.

- Agar ko'rsatilgan tranzaksiya Bank tizimida aniqlansa, tegishli hujjat (elektron yoki asl to'lov hujjati) mavjudligi tekshiriladi. Bunday hujjat mavjud bo'lmasa (hisobdan chiqarish uchun asos) Bank mijozni hisobvarag'idan ruxsatsiz echilgan summani belgilangan tartibda qoplaydi.

- Agar asl to'lov hujjati topilsa, mijozning norozilik arizasi avtomatik ravishda echiladi.

- Agar to'lov hujjatining asli mavjud bo'lmasa, «Internet-banking» tizimida elektron hujjat mavjud bo'lsa, ushbu elektron hujjatning ERIsi to'g'riliq tahlil qilinadi.

8.7. Nizoni ko'rib chiqish komissiyasi Mijozning ETHdagi ERIsini texnik ekspertizadan o'tkazadi, ya'ni:

- Bank mazkur ETHiga muvofiq keluvchi ERIni taqdim etishi mumkin;

- Agar ERI mavjud bo'lsa, hujjatni imzolagan Mijozning foydalanuvchisi aniqlanadi;

- Agar bunday foydalanuvchi aniqlansa, mazkur foydalanuvchining tegishli guvohnomasi (sertifikat) va «Internet-banking» tizimi axborotlar bazasidan faol ochiq kalitli ERIsi qidiriladi;

- Belgilangan faol ochiq kalit aniqlanganda, ETH(nizoli)ga tegishli ERI tekshiriladi.

Agar ERI tasdiqlansa Mijozning norozilik arizasi avtomatik tarzda echiladi;

8.8. Texnik ekspertiza asosida nizoni ko'rib chiqish komissiyasi dalolatnoma tuzadi.

8.9. Agar nizoni ko'rib chiqish komissiyasi tomonidan Mijozning ERIsi to'g'ri ekanligi va faol ochiq kalitli ERI Mijozga tegishli ekanligi tasdiqlansa, Bank Mijoz oldida uning nizoli ETHsi bo'yicha javobgar bo'lmaydi

## **9. BOSHQA SHARTLARI**

9.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan tomonlar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ushbu shartnomaga barcha qoshimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.